

2022-yil 14-noyabr

“Yangi O‘zbekistonning Yangi kasaba uyushmalari” mavzusida kasaba uyushma a‘zolari, xodimlari va faollari bilan ochiq muloqot



Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining 8-Qurultoyi ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigida mustaqil davlatimiz tarixida ilk bora 11-noyabrni “Kasaba uyushmalari kuni” etib belgilash taklifi bildirilgach, “O‘zbekiston kasaba uyushmalari kunini belgilash to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilingan edi. Bu esa besh yarim milliondan ortiq a‘zoga ega bo‘lgan kasaba uyushmalari hayotida unutilmas voqea sifatida tarixga muhrlanib qoldi.

Joriy yilning 14-noyabr kuni “O‘zkimyosanoat” AJ majlislar zalida “11-noyabr - “O‘zbekiston kasaba uyushmalari kuni” munosabati bilan Kimyo va farmatsevtika sanoati tarmog‘ida mehnat qilayotgan xodimlar va kasaba uyushma faollari ishtirokida tashkil etilgan tadbirda mehnatkashlarning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlari va mehnat sohasidagi huquqlarini himoyalash borasida kasaba uyushmalari tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar, mazkur yo‘nalishdagi faoliyatni yanada takomillashtirish xususida ochiq muloqot o‘tkazildi.

Tadbir davomida bayram munosabati bilan Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarda faol ishtirok etayotgan, kimyo va farmatsevtika tarmog‘i xodimlarining mehnat va ijtimoiy-iqtisodiy huquqlari hamda manfaatlarini himoya qilishda salmoqli hissa qo‘shayotgan, kasaba uyushmalari hayotida faollik ko‘rsatayotgan kasaba uyushma xodimlari va faollari, mehnat jamoalari va ishlab chiqarish ilg‘orlaridan bir guruhi Kimyo va farmatsevtika sanoati xodimlari kasaba uyushmasi Respublika Kengashining “Faxriy yorlig‘i” hamda “O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyatining qimmatbaho sovhallari bilan taqdirlandilar.



ON KASABA
JUNI



"O'zkiyosanoat" AJ
MATBUOT XIZMATI

  [uzkiyosanoat](#)

  [uzkiyosanoat.uz](#)

 (+99878) 140-74-26



uzkiymosanoat



uzkiymosanoat.uz



(+99878) 140-74-26







source:

"O'zkimyo sanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/yangi-uzbekistonning-yangi-kasaba-uyushmalari-mavzusida-ochiq-muloqot>